

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

### 2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

## Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                            |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....                                  | 9   |
| <b>Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li</b>                                                                                                     |     |
| РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....                                                        | 14  |
| <b>Маннапова Раъно Абборовна</b>                                                                                                           |     |
| METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ .....                                   | 22  |
| <b>Mansurov Xamrokul Ilxomovich</b>                                                                                                        |     |
| INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..                                                           | 29  |
| <b>Liu Qing</b>                                                                                                                            |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....                                           | 36  |
| <b>Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo</b>                                                                                               |     |
| MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....                                                                                  | 41  |
| <b>Yorqin Xudoyberdiev</b>                                                                                                                 |     |
| BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI .....                           | 45  |
| <b>Karamatdinova Aysawle Paraxatovna</b>                                                                                                   |     |
| YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI ..... | 53  |
| <b>Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li</b>                                                                                                  |     |
| HUDUDIY SPORT-SOĞ'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..                                                        | 62  |
| <b>Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li</b>                                                                                                 |     |
| TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH .....                        | 71  |
| <b>Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi</b>                                                                                               |     |
| QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH ..... | 78  |
| <b>Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon</b>                                                                                              |     |
| VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH .....                                           | 83  |
| <b>Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod</b>                                                                                                |     |
| PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....                     | 88  |
| <b>Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich</b>                                                                                                      |     |
| KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....                                 | 93  |
| <b>Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich</b>                                                                                                   |     |
| MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....                               | 101 |
| <b>Temirov E.I.</b>                                                                                                                        |     |
| TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH .....                                 | 109 |
| <b>Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li</b>                                                                                                        |     |
| TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....                                                                      | 116 |
| <b>Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich</b>                                                                                               |     |



|                                                                                                                                                        |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....               | 121 |
| <b>Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунаввар</b>                                                                                                    |     |
| СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ .....                      | 127 |
| <b>Дадабоева Муштари Хамидиллаевна</b>                                                                                                                 |     |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ .....                                    | 138 |
| <b>Ташмухамедова Карима Саматовна</b>                                                                                                                  |     |
| ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....               | 143 |
| <b>Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина</b>                                                                                                            |     |
| TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI..... | 150 |
| <b>Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi</b>                                                                                                           |     |
| TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI .....                                                         | 156 |
| <b>Safaraliyev Basir Norboyevich</b>                                                                                                                   |     |
| TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MEKANIZMI VA TRANSFORMATSIYA NATIJADORLIGINI BAHOLASH .....                  | 162 |
| <b>Vafiyev Raxim Xalimjonovich</b>                                                                                                                     |     |
| JINCHAN REAGENTI YORDAMIDA KVARSLI-PIRIT KONSENTRATIDAN OLTINNI TANLAB ERITIB AJRATIB Olish.....                                                       | 169 |
| <b>Rahmonova Umida, Xasanov Abdurashid, Saidahmedov Aktam</b>                                                                                          |     |
| QALMOQQIR MIS-MOLIBDEN RUDALARI MINERALLARINING OCHILISH DARAJASINI BAHOLASH VA BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH.....                                 | 174 |
| <b>Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon</b>                                                                                                          |     |
| ФАКТОРЫ МОЛОДЕЖНОЙ БЕЗРАБОТИЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ, МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ .....  | 179 |
| <b>Мусаева Шоира, Усмонова Дилфуза</b>                                                                                                                 |     |
| QARZ KAPITALI ASOSIDA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) AMALIYOTINING AHAMIYATI .....                                      | 183 |
| <b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>                                                                                                             |     |
| ANGREN VA YANGI ANGREN IESLARINING KUL-SHLAK AG'DARMALARI TEXNOLOGIK NAMUNALARNING MODDIY TARKIBINI O'RGANISH .....                                    | 189 |
| <b>Almatov Ilxomjon, Xatamov G'ayrat, Jabborov Ergash, Sodiqov Farrux</b>                                                                              |     |
| AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR HISOB METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI .....                   | 195 |
| <b>Bekchanov Faxriddin Atabekovich</b>                                                                                                                 |     |
| XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI O'RNI .....                                                                           | 200 |
| <b>Safaraliyev Suyun Sheraliyevich</b>                                                                                                                 |     |
| RESEARCH AND DESIGN OF ANAEROBIC REACTORS FOR EFFECTIVE FERMENTATION OF AGRICULTURAL RESIDUE .....                                                     | 204 |
| <b>Dilbar Ramazonova</b>                                                                                                                               |     |
| "TARMOQLARDAN FOYDALANISH" BOBINI O'QITISHDA MUALLIFLIK TA'LIM PLATFORMASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI .....                            | 209 |
| <b>Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchov</b>                                                                                                     |     |
| RAQAMLI MARKETING PLATFORMALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI .....    | 216 |
| <b>Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li</b>                                                                                                                   |     |



TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH JARAYONLARINING AMALDAGI  
HOLATI ..... 223

**Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich**

ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIYAVIY TAHLIL AMALIYOTINING MUAMMOLARI VA UNI  
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ..... 232

**Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi**

SURXONDARYODA YASHIL TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI ..... 240

**Mamatov Sardor, Rashidova Nargiza**



# SURXONDARYODA YASHIL TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

## Mamatov Sardor Ilyosovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Raqqamli iqtisodiyot” kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: [xon.9229@gmail.com](mailto:xon.9229@gmail.com)

## Rashidova Nargiza Orifjon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Turizm yo'nalishi talabasi

E-mail: [nargizaxonrashidova42@gmail.com](mailto:nargizaxonrashidova42@gmail.com)

**Annotatsiya.** Surxondaryo viloyatida yashil (eko) turizmni rivojlantirishning mavjud holati, muammolari va istiqbolli yo'nalishlari ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Yashil turizmning nazariy asoslari va barqaror hududiy rivojlanishdagi o'rni yoritilib, viloyatning tabiiy-biologik salohiyati, jumladan, Surxon davlat qo'riqxonasi va Buxoro tog' qo'yi kabi noyob turlarning ekoturistik ahamiyati baholangan. Janubiy Surxon suv ombori, Sangardak va Xo'jaikon tuz g'ori hududlarida amalga oshirilayotgan yirik ekoturizm loyihalari iqtisodiy va ekologik jihatdan tahlil qilingan. Loyihalar maydoni va bir gektarga to'g'ri keladigan investitsiya qiymati ko'rsatkichlari asosida qiyosiy baholash amalga oshirilgan. SWOT-tahlil asosida hududning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tahdidlari tizimlashtirilib, yashil turizmni jadal rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida yashil turizm sohasini institutsional, investitsiyaviy, ekologik va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil turizm, ekoturizm, Surxondaryo viloyati, barqaror turizm, tabiatni muhofaza qilish, bioxilma-xillik, ekologik infratuzilma, investitsiya loyihalari, SWOT-tahlil, tog'-rekreatsiya hududlari.

**Аннотация.** Исследованы современное состояние, проблемы и перспективные направления развития зелёного (экологического) туризма в Сурхандарьинской области. Раскрыты теоретические основы зелёного туризма и его роль в устойчивом территориальном развитии, оценён природно-биологический потенциал региона, включая экотуристическое значение Сурханского государственного заповедника и редких видов животных, в частности бухарского горного барана. С экономической и экологической точек зрения проанализированы крупные экотуристические проекты, реализуемые на территориях Южно-Сурханского водохранилища, Сангардака и соляной пещеры Ходжаикон. Проведена сравнительная оценка проектов на основе показателей их площади и объёма инвестиций в расчёте на один гектар. На основе SWOT-анализа систематизированы сильные и слабые стороны региона, его возможности и угрозы, а также определены основные факторы, препятствующие ускоренному развитию зелёного туризма. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на институциональное, инвестиционное, экологическое и социальное развитие сферы зелёного туризма.

**Ключевые слова:** зелёный туризм, экотуризм, Сурхандарьинская область, устойчивый туризм, охрана природы, биоразнообразие, экологическая инфраструктура, инвестиционные проекты, SWOT-анализ, горно-рекреационные территории.

**Abstract.** The current state, key challenges, and prospective directions for the development of green (eco) tourism in the Surkhondaryo Region are examined from scientific and practical perspectives. The theoretical foundations of green tourism and its role in sustainable regional development are outlined, while the region's natural and biological potential, including the ecotourism significance of the Surkhan State Nature Reserve and rare species such as the Bukhara urial, is assessed. Major ecotourism projects implemented in the areas of the South Surkhan Reservoir, Sangardak, and the Khojaikon Salt Cave are analyzed from economic and environmental perspectives. A comparative assessment of these projects is conducted based on their area and investment value per hectare. A SWOT analysis is employed to systematize the region's strengths, weaknesses, opportunities, and threats and to identify the key factors constraining the accelerated development of green tourism. Based on the research findings, scientific and practical proposals and recommendations are developed to promote the institutional, investment, environmental, and social development of the green tourism sector.

**Keywords:** green tourism, ecotourism, Surkhondaryo Region, sustainable tourism, nature conservation, biodiversity, environmental infrastructure, investment projects, SWOT analysis, mountain recreational areas.



## KIRISH

Jahon turizm industriyasida so'nggi o'n yillikda «yashil» (ekologik) turizm yo'nalishi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Buning sababi shundaki, turizmning an'anaviy shakllari ko'pincha tabiiy resurslarga ortiqcha yuklanish, ekotizimlarning buzilishi va mahalliy jamoalar manfaatlarining yetarlicha e'tiborga olinmasligi kabi holatlarga olib kelishi mumkin, yashil turizm esa tabiatni muhofaza qilish bilan iqtisodiy samaradorlikni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda, jumladan, Surxondaryo viloyatida so'nggi yillarda yashil turizm yo'nalishini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2025-yil avgust oyida Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumanida joylashgan Janubiy Surxon suv ombori hududida 15,7 gektar maydonda, qiymati 140 milliard so'mlik zamonaviy ekoturizm majmuasini barpo etish boshlandi. Shuningdek, Sariosiyo tumanida 615 gektar maydonda qiymati 913,3 milliard so'm bo'lgan «Sangardak» turizm maskani, Xo'jaikon tuz g'ori atrofida esa 2025–2035-yillarda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan, umumiy qiymati 12 million yevroga teng tibbiy-ekoturizm loyihasi boshlandi [1, 2, 3].

Shu bilan birga, viloyatda yashil turizm salohiyatidan foydalanish darajasini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Mavjud tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, O'zbekistonda turistik oqimning asosiy qismi Samarqand, Buxoro va Xiva kabi an'anaviy markazlarga yo'naltirilgan bo'lib, Surxondaryo kabi hududlarda turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud [4]. Bu holat yashil turizmni rivojlantirishning ilmiy asoslangan yo'llarini ishlab chiqish zaruratini kuchaytiradi.

Muammoning dolzarbligi yana shundan iboratki, Surxondaryo viloyati nafaqat turistik, balki ekologik jihatdan ham noyob hudud hisoblanadi. Viloyat hududida Davlat ekologiya qo'mitasi tasarrufidagi Surxon davlat qo'riqxonasi joylashgan bo'lib, unda muhofazaga alohida ehtiyoj sezadigan Buxoro tog' qo'yi kabi nodir turlar saqlanib qolgan [9]. Shu sababli turizmni rivojlantirish strategiyasi ekologik xatarlarni minimallashtirishga qaratilgan «yashil» tamoyillar asosida qurilishi muhim bo'lib, bu iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash bilan birga, tabiiy merosni asrab-avaylash imkonini beradi.

Tadqiqotning obyekti — Surxondaryo viloyatida yashil turizm sohasini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa yashil turizmni rivojlantirishning institutsional, investitsiyaviy va ekologik jihatlaridan iborat.

Tadqiqotning maqsadi — Surxondaryo viloyatida yashil turizm sohasini rivojlantirishning amaldagi holatini tahlil qilish, mavjud loyihalar asosida rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: yashil turizm tushunchasi va uning nazariy asoslarini o'rganish; viloyatda amalga oshirilayotgan ekoturizm loyihalarini tasniflash va tahlil qilish; mavjud rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash; yashil turizmni rivojlantirish yo'llarini asoslash.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

«Yashil turizm» tushunchasi ilmiy adabiyotlarda, odatda, ekoturizm tushunchasi bilan chambarchas bog'liq holda qo'llaniladi. Ekologik turizm menejmenti nazariyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda yashil turizmning asosiy belgilari sifatida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, rekreatsion yuklanish chegaralariga rioya qilish va mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olish ko'rsatiladi [5].

Rasmiy manbalarda O'zbekistonning tabiiy hududlari — cho'l va tog'li zonalar — mamlakatning har bir viloyatida agroturizm, ekomarkazlar va tabiiy hududlarni tashkil etish uchun qulay zamin yaratayotgani ta'kidlanadi. Bunda sanatoriy-kurort zonalar, jumladan, Surxondaryo viloyatidagilar alohida o'rin tutadi [6].

Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha davlat darajasida qabul qilingan hujjatlarda hududni kompleks rivojlantirish vazifalari belgilangan bo'lib, bu vazifalar doirasida turizm sohasi, shu jumladan, ekologik yo'nalishdagi loyihalar alohida o'rin egallaydi [7]. Shuningdek, viloyatning tog'li-rekreatsion hududlarida (Boysun, Sangardak, Omonxona) turizm infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha manzilli dastur tasdiqlangan, bu esa davlat siyosati darajasida yashil turizm yo'nalishiga ustuvor ahamiyat berilayotganidan dalolat beradi [8].

Ommaviy axborot vositalarida so'nggi yillarda Surxondaryoda amalga oshirilayotgan yirik ekoturizm loyihalari — Janubiy Surxon suv ombori majmuasi, «Sangardak» turizm maskani va Xo'jaikon tuz g'ori atrofidagi tibbiy-ekoturizm kompleksi haqida keng ma'lumotlar keltirilgan [1, 2, 3]. Mavjud manbalarda loyihalarning moliyaviy va qurilish jihatlariga keng e'tibor qaratilgan bo'lib, ularning yashil turizm konsepsiyasiga mosligi, ekologik barqarorligi va institutsional boshqaruv mexanizmlarini ilmiy jihatdan yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatlari mavjud. Mazkur tadqiqot aynan shu yo'nalishlarni ilmiy jihatdan yoritishga qaratilgan.

Viloyatning tabiiy-biologik resurslari bo'yicha davlat ekologiya idoralari tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarda Surxon davlat qo'riqxonasi, Hisor davlat qo'riqxonasi kabi muhofaza etiladigan hududlarning maqomi va ularning bioxilma-xillikni saqlashdagi roli asoslab berilgan [9, 10]. Xususan, Ko'hitang, Boysuntog',

Hisor va Bobotog' tizmalarida 800–2500 metr balandlikda yashaydigan, muhofazaga alohida ehtiyoj sezadigan Buxoro tog' qo'yi kabi nodir turlarning mavjudligi viloyatda turizmni rivojlantirishda ekologik omillarni albatta hisobga olish zarurligini ko'rsatadi [9]. Shu nuqtayi nazardan, yashil turizm konsepsiyasi an'anaviy turizmdan farqli o'laroq, aynan shunday nozik ekotizimlarga yo'naltirilgan hududlar uchun metodologik asos bo'la oladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida mazmuniy (kontent) tahlil, qiyosiy taqqoslash va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Mazmuniy tahlil usuli yordamida Surxondaryo viloyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, hokimlik va rasmiy axborot agentliklari tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlar o'rganildi [1, 2, 3, 7, 8].

Qiyosiy taqqoslash usuli yordamida viloyatda amalga oshirilayotgan uchta yirik ekoturizm loyihasi (Janubiy Surxon suv ombori, «Sangardak», Xo'jaikon tuz g'ori) maydoni, qiymati, joylashuvi va yo'nalishi bo'yicha taqqoslandi, bu orqali loyihalarning o'zaro o'xshashliklari va farqlari aniqlandi.

Tizimli yondashuv asosida yashil turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar institutsional, investitsiyaviy, infratuzilmaviy, ekologik va ijtimoiy toifalarga ajratildi, bu esa ularni tizimli tarzda tahlil qilish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi. Tadqiqotda, shuningdek, SWOT-tahlil usulidan viloyatning yashil turizm sohasidagi kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyatlari va tahdidlarini tizimli aniqlash maqsadida foydalanildi. Ushbu usul sifat jihatidan tahlilni boyitish imkonini berdi.

Iqtisodiy tahlil usuli yordamida uchta yirik loyihaning (Janubiy Surxon suv ombori, «Sangardak», Xo'jaikon tuz g'ori) maydon birligiga nisbatan investitsiya qiymati hisoblandi, bu orqali loyihalarning kapital jamlanganlik darajasi va ular orasidagi nisbiy farqlar aniqlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

### Yashil turizm tushunchasi va uning Surxondaryo uchun ahamiyati

Yashil turizm — bu tabiiy resurslardan minimal ekologik zarar bilan foydalanishga, atrof-muhitni muhofaza qilishga va mahalliy jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan turizm shakli hisoblanadi. Surxondaryo viloyati o'zining tog'li landshafti (Hisor tizmasi, Boysuntog', Ko'hitang), suv resurslari (Surxon suv ombori, Sangardak daryosi) va noyob tabiiy obyektlari (Xo'jaikon tuz g'ori) tufayli yashil turizmni rivojlantirish uchun yuksak tabiiy salohiyatga ega hudud hisoblanadi.

Aholisi 2 million 907 ming kishidan iborat va 14 ta tumanni o'z ichiga olgan viloyatda yashil turizmning rivojlanishi, bir tomondan, tabiiy meros va bioxilma-xillikni saqlashga, ikkinchi tomondan esa tog'li hududlarda aholi bandligini oshirishga va mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

### Viloyatning tabiiy-biologik salohiyati

Surxondaryo viloyati nafaqat landshaft xilma-xilligi, balki biologik xilma-xillik nuqtayi nazaridan ham O'zbekistonning eng boy hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyat hududida Davlat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tasarrufidagi Surxon davlat qo'riqxonasi joylashgan bo'lib, u alohida ekologik qimmatga ega tabiiy majmualarni asl holatida saqlash vazifasini bajaradi [9, 10].

Qo'riqxona hududida, shuningdek, Ko'hitang, Boysuntog', Hisor va Bobotog' tog' tizmalarining 800–2500 metr balandlikdagi siyrak archazorli qismlarida muhofazaga alohida ehtiyoj sezadigan Buxoro tog' qo'yi kabi nodir turlar poda bo'lib yashaydi va mavsumiy ko'chib yuradi [9]. Bunday noyob biologik resurslar, bir tomondan, viloyatni xalqaro ekoturizm va ilmiy-tabiatchunoslik turizmi bozorida noyob mahsulot sifatida targ'ib qilish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, turizm oqimini oqilona tartibga solish va rekreatsion yuklanish chegaralariga rioya qilishni taqozo etadi.

Shu nuqtayi nazardan, viloyatda amalga oshirilayotgan yirik infratuzilma loyihalari (suv ombori, turizm maskani, tuz g'ori atrofi) bilan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar o'rtasidagi masofa va ekologik ta'sir doirasini muntazam baholab borish muhim ahamiyatga ega. Bu iqtisodiy manfaatlar bilan uzoq muddatli biologik xilma-xillikni saqlash o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

### Viloyatda amalga oshirilayotgan ekoturizm loyihalari

So'nggi ikki yil davomida Surxondaryo viloyatida yashil turizm yo'nalishida bir qator yirik loyihalar boshlandi. Ularning asosiy parametrlari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan.



## 1-jadval

Surxondaryo viloyatida amalga oshirilayotgan yirik ekoturizm loyihalarining asosiy ko'rsatkichlari<sup>1</sup>

| Loyiha                                         | Joylashuvi             | Qiymati / maydoni                              | Yo'nalishi                                                                                                             |
|------------------------------------------------|------------------------|------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Janubiy Surxon suv ombori ekoturizm majmuasi   | Qumqo'rg'on tumani     | 140 mlrd so'm;<br>15,7 gektar                  | Kottejlar, basseyn, avtoturargoh, savdo va ovqatlanish nuqtalari, yashil maydonlar, oqova suvlarni tozalash tizimi [1] |
| «Sangardak» turizm maskani                     | Sariosiyo tumani       | 913,3 mlrd so'm;<br>615 gektar                 | Tog'li-rekreatsioon turizm, ekologik yo'llar va infratuzilma [2]                                                       |
| Xo'jaikon tuz g'ori tibbiy-ekoturizm kompleksi | Sherobod tumani atrofi | ≈12 mln yevro;<br>2025–2035-yillar (3 bosqich) | Tibbiy turizm, speleoturizm, xorijiy investitsiya ishtiroki [3]                                                        |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, loyihalarining barchasi davlat-xususiy hamkorlik va xorijiy investitsiyalar ishtirokida amalga oshirilmoqda. Bu esa viloyat rahbariyati tomonidan yashil turizmga investitsiyalarni jalb etishga ustuvor yo'nalish sifatida qaralayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, loyihalarining barchasi nisbatan yirik, kapital talab qiladigan obyektlar bo'lib, kichik va o'rta miqyosdagi mahalliy ekoturizm tadbirkorligini, masalan, oilaviy guzaxonalar va eko-turbazalarni yanada faolroq rag'batlantirish imkoniyatlari mavjud.

Loyihalarining maydon birligiga nisbatan qiymati ko'rsatkichlarini qiyoslash alohida qiziqish uyg'otadi. Janubiy Surxon suv ombori majmuasida 1 gektarga taxminan 8,9 milliard so'm investitsiya to'g'ri keladi, «Sangardak» turizm maskani misolida esa bu ko'rsatkich taxminan 1,5 milliard so'mni tashkil etadi. Mazkur farq shundan dalolat beradiki, suv ombori loyihasi nisbatan yuqori darajada intensiv va infratuzilmaviy jihatdan to'yingan (kottej, basseyn, savdo nuqtalari) obyekt sifatida shakllantirilmoqda, «Sangardak» esa keng tog'li-rekreatsioon hududni qamrab olgan, nisbatan ekstensiv va landshaftga asoslangan loyiha hisoblanadi. Xo'jaikon tuz g'ori loyihasi esa o'zining tor ixtisoslashuvi — tibbiy-speleoturizm yo'nalishi bilan ajralib turadi va xorijiy (Eron) investor ishtirokida amalga oshirilmoqda. Bu esa xalqaro hamkorlikning ushbu yo'nalishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Iqtisodiy jihatdan intensiv loyihalar, jumladan, suv ombori majmuasi kabi obyektlar tezkor iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lsa, landshaftga asoslangan ekstensiv loyihalar, xususan, «Sangardak» kabi maskanlar uzoq muddatli va kengroq ijtimoiy-ekologik samara, jumladan, aholi bandligi va tabiatni saqlashga xizmat qiladi. Muvozanatli yashil turizm siyosati ushbu ikki modelni uyg'unlashtirishni talab etadi.

**SWOT-tahlil**

Viloyatda yashil turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini sifat jihatidan baholash maqsadida SWOT-tahlil o'tkazildi. Uning natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan.

## 2-jadval

Surxondaryo viloyatida yashil turizmni rivojlantirishning SWOT-tahlili<sup>2</sup>

| Mezon           | Tavsif                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|-----------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Kuchli tomonlar | Yuksak tog'li landshaft va suv resurslari; Surxon davlat qo'riqxonasi va nodir turlar, jumladan, Buxoro tog' qo'yining mavjudligi; davlat darajasida qabul qilingan yirik investitsiya loyihalari; xorijiy investorlarning qiziqishi                                                                                                   |
| Zaif tomonlar   | Yagona ekologik standartlar va monitoring tizimini yanada takomillashtirish zarurati; kichik mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish ehtiyoji; tog'li hududlarga olib boruvchi yo'l va kommunal infratuzilmani takomillashtirish imkoniyatlari; ixtisoslashgan kadrlar salohiyatini oshirish zarurati |
| Imkoniyatlar    | Xalqaro ekoturizm va ilmiy-tabiatchunoslik turizmi bozorida ortib borayotgan talab; davlat-xususiy hamkorlik orqali qo'shimcha investitsiyalarni jalb etish; mahalliy aholini gid va xizmat ko'rsatuvchi sifatida jalb etish; mintaqaviy (O'rta Osiyo) ekoturizm marshrutlariga qo'shilish                                             |
| Tahdidlar       | Qurilish va sayyohlar oqimini ekologik me'yorlar asosida boshqarish zarurati; iqlim o'zgarishi sharoitida suv resurslaridan oqilona foydalanish ehtiyoji; boshqa mintaqalar bilan investitsiyalarni jalb etish bo'yicha raqobat                                                                                                        |

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi

Aniqlangan muammolar va cheklovchi omillar

O'tkazilgan tahlil natijasida Surxondaryo viloyatida yashil turizmni rivojlantirishda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan quyidagi asosiy yo'nalishlar aniqlandi:

- institutsional jihatlar: yashil turizm loyihalarini baholash va monitoring qilish uchun yagona ekologik standartlar va mezonlar tizimini yanada takomillashtirish zarur;
- investitsiyaviy jihatlar: asosiy e'tibor yirik, kapital talab qiladigan loyihalarga qaratilgan bo'lib, kichik mahalliy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud;
- infratuzilmaviy jihatlar: tog'li-rekreatsion hududlarga (Boysun, Sangardak, Omonxona) olib boruvchi yo'llar va kommunal tizimlarni yangi loyihalar talablariga muvofiq ravishda yanada takomillashtirish zarur;
- ekologik jihatlar: qurilish jarayonlari va ortib borayotgan sayyohlar oqimini samarali boshqarish orqali tabiiy ekotizimlar (suv omborlari, tog' landshaftlari, tuz g'ori) hamda Surxon davlat qo'riqxonasidagi nodir turlar, jumladan, Buxoro tog' qo'yining yashash muhitini muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratish lozim;
- inson kapitali va marketing jihatlar: yashil turizm bo'yicha ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash hamda xalqaro ekoturizm bozorida viloyatni targ'ib qilish strategiyasini yanada takomillashtirish zarur;
- muvofiqlashtirish jihatlar: turizm, ekologiya va mahalliy hokimiyat idoralari o'rtasida yirik loyihalarning ekologik ta'sirini birgalikda baholash mexanizmlarini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Surxondaryo viloyati yashil turizmni rivojlantirish uchun yuksak tabiiy, biologik va investitsiyaviy salohiyatga ega bo'lib, so'nggi yillarda bu yo'nalishda bir qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Mavjud loyihalar, asosan, infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ekologik barqarorlik, bioxilma-xillikni muhofaza qilish, institutsional boshqaruv va mahalliy jamoalarning ishtiroki masalalarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. SWOT-tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, viloyatning kuchli tabiiy va investitsiyaviy salohiyati bilan institutsional hamda infratuzilmaviy tizimni rivojlantirish imkoniyatlari o'rtasida muayyan tafovutlar mavjud bo'lib, bu yashil turizm konsepsiyasini tizimli ravishda joriy etishni taqozo etadi.

Tadqiqot yakunida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- viloyat darajasida yashil turizm loyihalarini baholash uchun ekologik standartlar va sertifikatlash tizimini joriy etish;
- Janubiy Surxon suv ombori, «Sangardak» va Xo'jaikon tuz g'ori kabi yirik loyihalarni amalga oshirish davomida ekologik monitoringni kuchaytirish va mustaqil ekologik ekspertiza tizimini yo'lga qo'yish;
- Surxon davlat qo'riqxonasi va unga tutash hududlardagi yirik loyihalar uchun majburiy masofa hamda rekreatsion yuklanish chegaralarini belgilash, bu orqali Buxoro tog' qo'yi kabi nodir turlarning yashash muhitini saqlash;
- kichik va o'rta miqyosdagi mahalliy ekoturizm tadbirkorligini (eko-turbazalar, oilaviy mehmonxonalar, gid xizmatlari) imtiyozli kreditlash va soddalashtirilgan ruxsat berish tartibi orqali rag'batlantirish;
- Boysun, Sangardak va Omonxona tog'li-rekreatsion hududlariga olib boruvchi yo'llar va kommunal infratuzilmani yangi ekoturizm loyihalar bilan uyg'unlashtirilgan holda rivojlantirish;
- mahalliy aholini yashil turizm loyihalariga gid, xizmat ko'rsatuvchi va mahalliy mahsulot ishlab chiqaruvchi sifatida jalb etish mexanizmlarini kuchaytirish;
- yashil turizm bo'yicha ixtisoslashgan kadrlarni tayyorlash dasturlarini va viloyatni xalqaro ekoturizm bozorida targ'ib qilish strategiyasini ishlab chiqish;
- amalga oshirilayotgan loyihalar natijalarini yillik monitoring qilish va ularning yashil turizm mezonlariga mosligini baholash tizimini institutsionallashtirish;
- turizm, ekologiya va mahalliy hokimiyat idoralari o'rtasida yirik loyihalarning ekologik ta'sirini birgalikda baholaydigan doimiy muvofiqlashtirish komissiyasini tashkil etish.

Ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi Surxondaryo viloyatida yashil turizm sohasini nafaqat investitsiya hajmi, balki ekologik barqarorlik va ijtimoiy samaradorlik nuqtayi nazaridan ham sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda mavjud loyihalarning ekologik ta'sirini miqdoriy baholash va mahalliy aholi manfaatdorligini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Janubiy Surxon suv ombori hududida 140 mlrd so'mlik ekoturizm kompleksi quriladi // Daryo Yangiliklari. – 2025-yil 25-avgust; Gazeta.uz. – 2025-yil 25-avgust.
2. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida «Sangardak» turizm maskani barpo etilishi to'g'risida xabar // Rasmiy axborot. – 2025-yil iyun.
3. Surxondaryodagi tuz g'orida 15 mln dollarlik tibbiy va ekoturizm kompleksi quriladi // Gazeta.uz. – 2025-yil 7-sentabr.



4. O'zbekistonda turizm: muammolar va rivojlanish istiqbollari // Strategy.uz tahliliy materiali. – 2025-yil may.
5. Кекушев В. П., Сергеев В. П., Степаницкий В. В. Основы менеджмента экологического туризма : учеб. пособие. – М., 2011.
6. Turizm turlari // O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal (gov.uz) rasmiy ma'lumoti.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-maydagi «2022–2026-yillarda Surxondaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 245-son qarori.: <https://lex.uz/uz/docs/-5998913>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi «Surxondaryo viloyatining tog'li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-439-son qarori.: <https://lex.uz/docs/-7263277>
9. Surxon davlat qo'riqxonasida Buxoro tog' qo'ylari tasvirga olindi // Kun.uz. – 2024-yil 29-yanvar.
10. Bioxilma-xillik // O'zbekiston Respublikasi Davlat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining rasmiy sayti (eco.gov.uz).
11. Surxon vohasining turizm salohiyatiga bir nazar // Review.uz tahliliy materiali.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)